GRAFIK TASVIRLASH VA CHIZMACHILIK FANINING TA’LIMDAGI PEDAGOGIK ROLI

Esanova Hulkar Abdurayim qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: maqolada grafik tasvirlash va chizmachilik fanining o‘quvchilarning texnik fikrlash, estetik tafakkur va ijodiy salohiyatini rivojlashdagi roli tahlil qilinadi. STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar va loyiha asosidagi metodlar orqali nazariya va amaliyot uyg‘unligi hamda fanlararo integratsiya ta’lim samaradorligini oshirishi ko‘rsatildi. Rang nazariyasi va tasviriy san’at asoslari orqali o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: grafik tasvirlash, chizmachilik, STEAM yondashuvi, rang nazariyasi, estetik tarbiya, fanlararo integratsiya, ijodiy tafakkur.

Zamonaviy davrda fan va texnika sohalarida jadal rivojlanish va tub yangilanishlar kuzatilmoqda. Insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarida osmono‘par binolar, zamonaviy texnik qurilmalar, avtomatlashtirilgan tizimlar hamda yuqori texnologiyalar paydo bo‘lib, ular innovatsion yondashuvlar asosida yaratilmoqda. Bunday taraqqiyotning asosida aniq hisob-kitoblar, standartlashtirilgan texnik yechimlar va grafik tasvirlar, xususan, texnik chizmalar muhim o‘rin egallaydi. Chunki har qanday murakkab texnik inshoot yoki mexanizm avvalo grafik ifoda – chizma orqali loyihalanadi va keyinchalik amaliyotga tatbiq etiladi. Shu sababli grafik tasvirlash texnologiyalari nafaqat texnik jarayonlarning ajralmas qismi, balki ilmiy tafakkurning muhim ifodasi sifatida ham e’tirof etiladi.

Mashhur fransuz olimi va davlat arbobi Gaspard Monj chizmachilikning ahamiyatini alohida ta’kidlab, “Chizma – texnika bilan shug‘ullanuvchi barcha xalqlar uchun tushunarli bo‘lgan universal til, u texnika tilidir”, deya ta’riflagan. Mazkur fikr grafik tasvir nafaqat texnik fikrlashni ifodalovchi vosita, balki insoniyat ilmiy tafakkurining rivojlanishini aks ettiruvchi muhim kommunikativ tizim ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, chizmalar orqali murakkab konstruktiv g‘oyalar qisqa, aniq va universal shaklda ifodalanadi hamda turli mamlakat mutaxassislari o‘rtasida samarali ilmiy-texnik muloqot imkoniyati yaratiladi.

Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida, ayniqsa umumta’lim maktablari bosqichida grafik tasvirlash asoslari chizmachilik fanining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi shaxsining roli beqiyosdir. O‘qituvchi o‘quvchilarda mazkur fan bo‘yicha qiziqish uyg‘otishi, ularning texnik tafakkurini shakllantirishi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Ta’lim jarayonida nazariy tushuntirish bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, ko‘rgazmali qurollar, maketlar, modellar, shuningdek, multimedia vositalari va videoproektorlar kabi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqur anglashiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonining samaradorligini oshirib, bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Chizmachilik fani o‘quvchilarda predmetlarning tuzilishi va shaklini tasavvur qilish, ularni konstruktiv jihatdan tahlil qilish hamda ortogonal proyeksiyalar yordamida tasvirlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Xususan, gorizontal (H), vertikal (V) va yon (W) proyeksiyalar orqali predmetning har bir qismi aniq va tizimli ravishda ifodalanadi. Bunday ko‘nikmalar nafaqat maktab ta’limi uchun muhim, balki kelajakda muhandislik, arxitektura, dizayn va texnologiya sohalarida faoliyat yuritishni maqsad qilgan yoshlar uchun mustahkam nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi.

Buyuk mutafakkir va rassom Leonardo da Vinchi “Nazariyasiz amaliyotni sevuvchi inson boshqaruvsiz va kompassiz kemaga chiqqan dengizchiga o‘xshaydi, u qayerga borishini hech qachon bilmaydi”, degan edi. Ushbu fikr ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotning o‘zaro uzviy bog‘liqligini yaqqol ifodalaydi. Ayniqsa, chizmachilik kabi ko‘rgazmali fanlarda nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni grafik ifoda orqali hal etish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Bugungi kunda grafik tasvirlar ta’lim jarayonining muhim didaktik vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Grafik materiallar orqali o‘quvchilar atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni tizimli, mantiqiy hamda aniq tasavvur qilishni o‘rganadilar. Diagramma, sxema, chizma va grafiklar murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, grafik tasvirlar turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyani ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, geografiya fanida xaritalar, relyef shakllari va topografik chizmalar bilan ishlash jarayonida chizmachilik fanining asosiy tushunchalari: masshtab, proyeksiya, burchak o‘lchovlari, qiyalik va izoliniyalar kabi elementlardan faol foydalaniladi. Geografik obyektlarning grafik tasvir orqali ifodalanishi o‘quvchilarning tabiiy muhit haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi hamda fazoviy tafakkurini rivojlantiradi.

Tasviriy san’at darslarida ham chizmachilik fanining nazariy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Kub, shar, prizma, konus va silindr kabi geometrik shakllarning tuzilishi, ularning fazodagi joylashuvi va proyeksiyalarda tasvirlanishi chizmachilik fanida mukammal o‘rganiladi [2:34]. Bu esa o‘quvchilarga perspektiva qonuniyatlarini to‘g‘ri qo‘llash, proporsiya va hajmni aniq tasvirlash hamda badiiy asarlar yaratishda realistik ifoda vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Texnologiya (mehnat ta’limi) fanida ham texnik chizmalar asosida bajariladigan konstruktorlik va yasash ishlari muhim o‘rin tutadi. Masalan, bahoriy loyiha ishlari sifatida qushlar uchun uycha tayyorlash jarayonida chizmachilik fanida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar keng qo‘llaniladi [3:5]. Detallarning o‘lchamlarini aniqlash, turli geometrik shakllarda loyihalash, buyumning har bir ko‘rinishini chizma orqali ifodalash kabi ko‘nikmalar aynan grafik tasvirlash faoliyati orqali shakllanadi.

Bunday darslar nafaqat o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, balki ularni amaliy faoliyatga jalb etib, nazariy bilimlarni real tajriba bilan boyitadi. Grafik asosda tashkil etilgan dars ishlanmalari, ayniqsa ekologik va estetik tarbiya elementlari bilan uyg‘unlashganda, o‘quvchilarda tabiatga mehr, vatanparvarlik tuyg‘usi hamda go‘zallikni anglash qobiliyatini shakllantiradi [5:24]. Umuman olganda, grafik tasvirlash fanini boshqa o‘quv fanlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish o‘quvchilarning murakkab tushunchalarni anglash, ularni aniq tasavvur qilish hamda amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv kompetensiyaviy ta’lim tizimini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Har bir texnik chizma aniq o‘lchovlar, matematik hisob-kitoblar va geometrik qonuniyatlarga asoslanadi [1:382]. Shu nuqtai nazardan chizmachilik fani matematika, ayniqsa geometriya bilan chambarchas bog‘liqdir. Chizma yaratish jarayonida o‘lchov birliklari, proporsiyalar, nisbatlar, burchaklar hamda shakllar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Geometrik teorema va aksiomalarning amaliy qo‘llanilishi o‘quvchilarga ikki fan o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash hamda bilimlarni kompleks tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi.

Fanlararo integratsiyaning chuqur anglanishi o‘quvchilarda nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligini ta’minlaydi. Natijada mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni tahlil qila oladigan va ularning yechimini grafik vositalar orqali ifodalash qobiliyatiga ega shaxslar shakllanadi [8:12]. Zamonaviy jamiyat aynan shunday kompetensiyalarga ega mutaxassislarni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, bugungi kunda jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Ta’lim jarayonida grafik tasvirlash vositalaridan samarali foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiradi, balki ularda estetik did, kasbiy qiziqish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Tasviriy san’at ta’limida rang bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning estetik tafakkuri, individual ijodkorligi hamda emotsional idrokini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Rang nazariyasini innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar, vizual-tajriba metodlari, interaktiv o‘yinlar va loyiha asosidagi ta’lim ranglarni aniqlash, ularni uyg‘unlashtirish hamda badiiy ifoda vositasi sifatida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi [4:7]. Innovatsion metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi hamda fanlararo integratsiyani rivojlantiradi [6:462]. Rang nazariyasini zamonaviy usullar orqali o‘rgatish o‘quvchilarning kuzatuvchanligini, tanqidiy fikrlashini, tajriba asosida xulosa chiqarish qobiliyatini hamda san’at asarlarini tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at ta’limida rang bilan ishlash ko‘nikmalarini innovatsion metodlar asosida rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, estetik dunyoqarashini boyitadi va san’atga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, milliy va xalqaro tajribalarni integratsiyalash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sobitovich I. O. et al. CREATING A COMPOSITION IN THE LANDSCAPE GENRE //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 382-384.

2. Jumaboyev, N. P. "Rangtasvir.“Ilm Ziyo Zakovat”, T.: 2023."

3. Имомов F. . (2025). CHIZMACHILIK FANINING O‘QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA’SIRI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/102914.

4. Хожакулов R. . (2025). O‘QUVCHILARNING RANGLAR BILAN ISHLASH QOBILYATINI SHAKILLANTIRISHNING AHAMIYATI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/101493.

5. Pardaboevich, JN. (2023). Sharq mutafakkirlari merosidan ta’lim va tarbiyada foydalanish zarurati. Innovatsiyalar, ijodkorlik va san’at jurnali , 2 (3), 23-28. https://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/108.

6. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.

7. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.

8. Bolbekovich, N. B. . (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42